



## QUMQO`RG`ON TUMANI MIKROTOPONIMLARINING HOSIL BO`LISH ASOSLARI

**To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna**

*Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Har qanday tilning toponimiya tizimi ma`lum bir davrninggina, ma`lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarninggina mahsuli emas. Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko`p asrlik rivoji mahsulidir. Ushbu maqolada Qumqo`rg`on tumani mikrotoponimlarining hosil bo`lish asoslari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so`z:** toponim, mikrotoponim, etimologiya, stritigrafik, etnotoponim, topoobyekt, migratsiya, onomastic, antroponim

Joy nomlari ko`p asrlar davomida ijod qilgan ulkan lisoniy, madaniy-ma`naviy boylikdir. Toponimlarda xalqning o`ta qadimiy davrlardan tortib shu kunlargacha bo`lgan noyob Geografik nomlar ma`lum tarixiy davrda yuzaga keladi, tarixiy voqealarning xronologik guvohi hisoblanadi. Toponimlar vaqt davomida shakli va mazmuni bo`yicha o`zgarib boradi, aniq tarixiy voqealarga bog`liq ravishda hududiy tarqaladi. Urushlar, aholi migratsiyasi, etnik jarayonlar mintaqa toponimiyasida o`zining izini qoldiradi. Har bir tarixiy davr o`zining ma`lum geografik nomlar qatlamini- stratigrafiyasini yuzaga keltiradi. Bu jihatlari bilan toponimika tarix fani bilan uzviy aloqada rivojlanib boradi.

Mikrotoponimlar o`zida ariq, buloq, guzar, dala, dasht, jar, jilg`a, tepalik, hovuz, soy, mahalla, ko`cha, o`tloq, qir, quduq, singari mayda geografik ob`ekt nomlarining atoqli otlarini o`zida mujassamlashtiradi. Geografik nomlarning hosil bo`lish asosiga ko`ra toponimning qaysi lug`aviy geografik qatlamga mansubligi tahlil qilinadi. Joy nomlari aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo`lib, kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog`liq. Aniqroq aytganda, har bir tarixiy davr o`ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini uning geografik nomlarida ham ko`rish mumkin.

Geografik nomning asl ma`nosini (etimologiyasini) aniqlashda uni tarixiy paydo bo`lgan davri bilan birga o`rganish maqsadga muvofiqdir. Har bir tarixiy davr geografik nomlarning muayyan qatlami (*stratigrafik*) ni hosil qilgan. Tarixiy ma`lumotlar har doim ham nomlashning tarixiy jarayonini kuzatish va tiklash imkonini bermaydi. Shu sababdan ko`pincha toponimik ma`lumotlarni tarixiy voqea-hodisalarni aniqlashda qo`shimcha manba sifatida foydalanish yaxshi natija beradi. Toponimlar xalqimiz kuzatishlari, tajribalari, ularning dunyoqarashi va turli e`tiqodlari o`z ifodasini topgandir. Agar nomlar ifoda qilgan ma`nolarni, tarixiy, jug`rofiy, ijtimoiy ma`lumotlarni, nomlarning tanlanish va qo`yilish sabablarini, toponimlarning kelib chiqish tarixini tahlil qilinsa, bu holat yorqin



ko`rinadi. Tilda ma`nosiz, besabab nom yo`q. Xalqimiz qadimiy davrlardan boshlab joylarni nomlash bo`yicha boy tajriba orttirgan, biror joyni asossiz, besabab u yoki bu tarzda atamagan. Mana shu sabab va asoslarda xalqning ona tabiat, atrof – muhit haqidagi sinchkov kuzatishlari, tajribalari, ko`hna tarixning turli alg`ov – dalg`ovli va osoyishta davrlarida boshidan kechirganlari, ulug` orzu va umidlari o`z mujassamini topganini ko`ramiz.

Har qanday tilning toponimiya tizimi ma`lum bir davrninggina, ma`lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarninggina mahsuli emas. Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko`p asrlik rivoji mahsulidir. Shu sababli o`zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy toponimlar, tarixiy toponimlar, yaqin o`tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonma –yon yashamoqda<sup>1</sup>. Albatta, toponimiya tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo`lganligini aniq belgilashning iloji yo`q. Chunki, ko`pgina nomlar qachon kim tomonidan belgilangani ma`lum emas. Shu sababli joy nomlarining ijodkori xalq deb baholaydi, hamda bunday nomlar tabiiy toponimlar, xalqona nomlar deb yuritiladi. Nomlarning paydo bo`lish tarixi va asoslari unutilgan bo`lsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo`ladi. Bu ko`pincha nomning grammatik strukturasi tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste`moldan chiqqan nomlar o`rnini to`ldirish, yangi ob`ektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bunga ikki yo`l ko`zga aniq tashlanib turadi.

1. Yangi nom ijod qilish, yasash usuli.
2. O`zga tillardan nom o`zlashtirish usuli.

Mana shu ikki yo`l bilan toponimiya boyib, yangilanib boradi. Toponimik tizimning o`zgarishi va boyishida har ikkala usul ham muhim. Ammo yangi nom ijod qilish, ya`ni yangi nom yasash yo`li tilning o`z ichki resurslariga, imkoniyatlariga tayangani unda tilning milliylik ruhi saqlanadigan bo`lgani uchun afzalroq, deb baholanadi. Toponimlarni ma`nosiga ko`ra, tahlil etganda ularni qanday so`zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Har bir nomni o`rganishda biz, avvalo, uning sirtiga duch kelamiz, ya`ni uning nima deb atalganligiga e`tibor qaratamiz. Agar biz joy nomlarini nima deb atalganligiga qarab izohlaganimizda edi, ba`zan kulgili holga tushib qolgan, ba`zan noto`g`ri xulosalar chiqargan bo`lar edik. Masalan, *Bolg`ali* (qishloqning nomi) ish quroli “molotok” nomiga qo`yilmagan, balki shu qishloq xalqining kasb-koriga qarab qo`yilgan. *Sayot* (qishloqning nomi) sayyod–ovchi emas, balki shu joylarda yashagan o`zbek qabilalaridan birining nomidir<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, joy nomlari muayyan hududning tarixi va aholisining turmush tarzini ifodalaydi. Bu, ayniqsa, mahallalar nomlarida yaqqol namoyon bo`ladi. Mustaqillik tufayli qayta tiklanayotgan qadriyatlarimiz ifodasi sifatida ba`zi joy nomlari qayta ko`rib chiqilib, yangicha nomlanayotganligi ham ayni haqiqatdir.



Qumqo'rg'on tumani hududidagi mikrotoponimlarning shakllanish asosi rang barangligi bilan ajralib turadi. Toponimlarning paydo bo'lishi ma'lum bir sabab va qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hududdagi geografik obyektlarning nomlari biror sabab yoki biror asosning natijasidir. Toponimlarning shakllanish yo'li, paydo bo'lish jarayoni muayyan lisoniy qonuniyatlarga amal qilingan holda hamda bevosita mahalliy aholi tili (shevasi)ning lisoniy imkoniyati va birliklari ishtirokida kechadi.

Shu sabab Qumqo'rg'on tumani mikrotoponimlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan lisoniy omillarga e'tibor qaratdik. Bularning asosiysi antroponim asosli toponimlar bo'lib, tuman hududida geografik nomlarning 24% shu omil asosida shakllanganligi aniqlandi.

Geografik obyekt	Umumiy soni	Antroponim asosida	Foizi
Mahalla nomi	61	2	
Ko'cha nomi	523	174	
Qishloq nomi	71	2	
Masjidlar nomi	12	10	
Qabristonlar nomi	39	19	
Ziyoratgoh nomi	20	4	
Fermer xo'jaliklar nomi	227	137	
Kanal va soylar	83	4	

Qumqo'rg'on tumanidagi mikrotoponimlarning ko'pchilligi uchun etnonimlar asos vazifasini o'taganini kuzatish mumkin. Har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman joy nomlaridan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Til tuzilishida etnonimlarning ham muhim o'rni bor. Urug' va qabilalar ko'pgina xalqlar uchun allaqachon tugab ketgan. O'zbekiston etnotoponimiyasi to'g'risida esa bunday deb bo'lmaydi. Chunki bu yerda urug'chilik qoldiqlari yaqin vaqtgacha ham mavjud bo'lgan va har bir urug' yoki uning tarmoqlari yashagan qishloq o'sha urug' yoki shoxning nomi bilan atalgan.

Etnotoponimlarni respublikaning hamma joyida uchratish mumkin. Bir qator toponimlar bizning o'tmish ajdodlarimiz - turkiy qabilalar va urug'larning hozirgi Ozbekiston hududida qaysi o'rinlarda yashaganliklari, qaysi hududlar bo'ylab ko'chib yurishganini aniq ko'rsatib bera oladi. O'tgan asrning 20 - yillarida aholi ro'yxati natijasida O'zbekiston aholisining urug'-qabilalari to'g'risida mukammal materiallar to'plandi. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik material berdi. (35)

Qumqo'rg'on tumanidagi joy nomlari tarkibida etnonimlardan nom olgan etnotoponimlar ham salmoqli o'rin egallaydi.



Qumqo'rg'on tumanidagi joy nomlari tarkibida etnonimlardan nom olgan etnotoponimlar ham salmoqli o'rin egallaydi.

Qumqo'rg'on tumanidagi Baymoqli mahallasining nomlanishi bevosita shu urug' nomi bilan bog'liq: **Baymoqli** – Qumqo'rg'on tumanidagi mahalla nomi. Qo'ng'irotlar voxtang'ali bo'limining 18 urug'idan biri. etnonim tamg'a asosida yaralgan. Baymoq-egri oyoq yoki oyoq kafti, maymoq. Dasht kemiruvchilaridan sug'urni qadimgi turkiy tilda baymoq deyishgan, chunki sug'urning oyoqlari ham maymoq bo'ladi. Sug'urning beso'naqay yirik turini ruslar baybak deyishadi. Boysun, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumanlarida Baymoqli qishloqlari bor. Tamg'aning uch qismi egik bo'lgan. Surxondaryoning Boysun va Jarqo'rg'on tumanlarida ham shu nomli qishloq mavjud. Boyboq-sug'urning bir turi. Urug'ning totemi va tug'idagi tasvir.

Qumqo'rg'on tumanidagi **Jaloyir, Baymoqli, Mo'nka, Qiyg'ochli, Ochamayli, Uyas, Arg'in, Mergan, Xalaki, Arslonboyli, Kamarki, Bo'ston, Qo'ng'irot, Qoraqasmoq, Jaloyir, Qorag'ursoq, Qo'ldovli Qorabura, To'pqora, Qarg'ali, Kamarki, Chagoyoq, Harduri, Batosh** kabi qishloq va ovullarning nomlari ham shu joyda o'tmishda nomi tilga olingan qabila va urug'lar istiqomat qilganligidan yoki hozirda yashab turganligidan dalolat beradi. Bu toponimlarning etimologiyasiga nazar tashlasak ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Etnonimlarni o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. O'zbek urug'larining nomlari (etnonimlar)ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totem) bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvondan tarqalgan deb hisoblaganlar. Jilontamg'ali, Oqbura, Qorabura, Qarg'ali kabi etnonimlar bunga misol bo'la oladi.

Xuddi shunday qadimiy etnotoponimlar Qumqo'rg'on hududida ham ko'plab topiladi. Tuman hududidagi Baymoqli, Qorabura, Qarg'ali, Qiyg'ochli, Qorag'ursoq

kabi qishloq nomlari qadimiy etnotoponimlarga kiradi: Tumandagi Qarg'ali qishlog'i nomi ham urug' nomi bilan bog'liq bo'lib, qarg'a totem vazifasini bajargan: **Qarg'ali** – Qumqo'rg'on tumanidagi

qishloq. Qishloqni nomlashda shu yerda yashovchi urug' nomi asos bo'lgan. Surxondaryo qo'ng'irotlarining qanjig'ali bo'limi qorag'ursoq urug'ining bir tarmog'i. Surxon vohasi juzlarining jilontamg'ali bo'limining qarg'a degan urug'i bor. Xorazm qo'ng'irotlari, Farg'ona vodiysidagi o'zbek urug'larida hamda G'arbiy Sibir turkiy xalqlarida qarg'a urug'i borligi aniqlangan. Qarg'a aslida totem, muqaddas hisoblangan jonzot (qush). Qarg'a qadimgi turklarda chiqayotgan quyoshning timsoli bo'lgan. Quyosh esa tonggi ko'k samo bilan birga Tangrini o'zida mujassam etgan.

Burgutdek qanotini yozgan qizil qarg'a tasviri qadimgi turk shahzodasi Kulteginning tojida o'rnatilgan. VIII asrning ikkinchi yarmiga oid Tibet manbalarga ko'ra O'rta Osiyoda yashagan qabilalar orasida gar-rga-pur nomli qabila tilga olinadi. Bu so'z "Qarg'a o'g'li" degan ma'noni bildiradi.



Etonimlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, turli-tuman ijtimoiy-tarixiy, lingvistik omillar bilan bog'liq. Aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug', qabila, xalq, millatga mansubligini ifodalovchi geografik nomlar har qanday hududiy toponimiya orasida katta bir guruhni tashkil etadi. Har qanday etimologiya, xususan aksari qadimiy so'zlar bo'lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Turkiy urug' va qabilalar juda qadimiy davrlardan beri o'z boshidan murakkab shakllanish jarayonlarini kechirgan. Urug', qabila ma'lum miqdor odamlarning guruhi, to'pi, birlashuvi va uyushmasidan iborat bo'lgan. Ma'lum davrda bu to'daga yangi qardosh va noqardosh urug'lar (etnoslar) qo'shilib turgan yoki qabila ma'lum bir shoxobcha, tarmoqlarga bo'linib ketgan. Mana shunday jarayonlar urug', qabila tarkibidagi komponentlarning soni miqdoriga ta'sir etgan. Mana shu xususiyat, belgi ba'zi hollarda urug', qabilani atash, nomlashga asos bo'lgan.

Toponimlar O'zbekiston hududida qadimdan yashab kelayotgan boshqa bir qator turkiy elatlar, qabilalar, xalqlar haqida ham xabar beradi: Turkmanovul, Turkmanariq, Qozoqli, Qozoqovul, Qirg'izlar, Tatarqishloq, Afg'onbog', Tojikqishloq, Tojikmahalla yoki bosqinchilik yo'li bilan kirib kelgan va keyinchalik o'zlashib ketgan xalqlar avlodlari Arabxona, Arabqishloq, Mo'g'ultepa,

Mo'g'ulkent haqidagi daraklar ham o'z izini qoldirgan.

Xususan Qumqo'rg'on tumani hududidagi joy nomlariga nazar tashlasak, bir qancha mahallalarda Tojikobod, Tojikqishloq, Turkman qishloq, Arabqishloq nomli toponimlarga duch kelamiz.

Qumqo'rg'on tumanidagi topoob'ektlar nomlarini tahlil qilganda, qishloqlarning atalish sababi sezilib turadi. Toponimlarning ushbu guruhi qishdoqda tarixan yashab kelgan etnosning qaysi urug', qabila yoki xalqqa mansubligiga ishora qiladi: Do'rmon ( urug' nomi ) qishlog'i, Arslonboyli (qabila nomi) qishlog'i, Achamoyli ( qabila nomi ) qishlog'i, Baymoqli ( urug' nomi) qishlog'i, Jaloyir ( urug' nomi ) qishlog'i, Bo'ston ( urug' nomi) qishlog'i, To'da ( qabila nomi) qishlog'i, Qarsaqli ( qabila nomi) qishlog'i, Qorag'ursoq (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Kamarki (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Mergan (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Qarg'ali (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Qorabura (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Qoraqasmoq (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Qo'ng'irot (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Do'ska (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Qiyg'ochli (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Changoyoq (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, To'g'iz (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Oboqli (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Alachopon (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Harduri (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Batosh (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Uyas (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Qanjig'ali (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Changoyoq (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i, Mo'nka (o'zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog'i va boshqalar. Tobora unitilib borayotgan urug'-aymoq nomlarini to'plash, yig'ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini,



etnonimlar bilan toponimlar munosabatini aniqlash etnotoponimika oldida turgan vazifadir.

O'zbekiston toponimlarining yuzaga kelishida qadimiy turkiy tillardan tashqari qadimiy baqtriya, xorazmiy, so'g'd, yunon, mo'g'ul tillarining ishtiroki borligini ko'rsatadi. Demak, toponimlar, o'z navbatida, qadimgi o'lik tillarning namunalari o'zida saqlab kelayotgan noyob manba hamdir. Xuddi shunday toponimlar Qumqo'rg'on tumani hududidagi joy nomlarida ham uchratish mumkin.... Masalan, Katman (so'g'd), Boldir (qadimgi turkiy), Qapchag'ay (mo'g'ul) kabi toponimlar mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон.: ҚДПИ. 2005.96 б.  
Begmatov E. Joy nomlari-ma'naviyat ko'zgusi. Toshkent. 1998. 33-bet.  
Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. -T., Fan. 1965  
N.Shayxislamov, Joy nomlarining hosil bo'lishi to'g'risida mulohazalar. 2021.60-  
bCentral Asian academic journal  
(S.Qorayev. Toponimika. Toshkent, 2006 y, 76-bet)  
Qorayev. O'zbekiston toponimlari izohli lug'ati. Toshkent  
Toponimika. 87- 203-bet, Toshkent. 2006 S. Qorayev